

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JUMAYEV JAVLONBEK ABDUQAHHOR O‘G‘LI

**“TEMURBEKLAR MAKTABI” O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL
ISHLASH KOMPETENSIYALARINI ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI
VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent –2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

| | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Jumayev Javlonbek Abduqahhor o'g'li | 3 |
| “Temurbeklar maktabi” o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi | |
| Жумаев Жавлонбек Абдуқаххорович | |
| Методика развития компетенций самостоятельной работы учащихся “Темурбеклар мактаби” с использованием электронных образовательных ресурсов | 22 |
| Jumayev Javlonbek Abduqahhor o'g'li | |
| Methodology for developing independent work competencies of students at “Temurbeklar maktabi” using electronic educational esources..... | 46 |
| E'lon qilingan ishlar ro'uxati | |
| Список опубликованных работ | |
| List of published works | 51 |

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JUMAYEV JAVLONBEK ABDUQAHHOR O‘G‘LI

**“TEMURBEKLAR MAKTABI” O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL
ISHLASH KOMPETENSIYALARINI ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI
VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent –2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.Phd/Ped3760 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mahmanov Orifjon Qudratovich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qayumova Nasiba Ashurovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Bozorov G'iyosiddin Sadullayevich
pedagogika fanlari nomzodi(PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida innovatsion axborot-ta'lim muhitini yaratish, o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning umumta'lim fanlarini chuqur va mukammal o'zlashtirishiga erishishda samarali tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jahonda xalqaro tashkilotlar (YUNESKO, YUNISEF, BMT) va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida ta'limning jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim omil ekani ta'kidlanib, sifatli ta'lim berish uchun virtual ta'lim texnologiyalari, ommaviy onlayn ochiq kurslar, mobil ta'lim texnologiyalari, ta'limni boshqarish tizimlari hamda elektron ta'lim modellaridan samarali foydalanilmoqda¹. Jumladan, umumta'lim fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslari, zamonaviy raqamli elektron qurilmalar, interaktiv dasturiy vositalar, internet veb saytlaridan samarali foydalanish asosida o'quvchilarning informatika va matematika bo'yicha savodxonligini, kreativ ijodiy qobiliyatini, mantiqiy fikrlash, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda ta'limni raqamlashtirish va integratsiyalash sharoitida hozirgi zamon ta'lim tizimida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar, shu jumladan, Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSH, Finlyandiya, Rossiya, J.Koreya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim muassasalarida elektron ta'limdan foydalanish asosida o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlar kelajakda umumta'lim fanlarining yangi fan yo'nalishlarini hosil bo'lishida, mavjud ta'limiy jarayonlarni axborot-ta'lim muhiti bilan integratsiyalashning pedagogik-psixologik muammolarini yechishdek muhim vazifaga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Respublikamizda so'nggi yillarda uzluksiz ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, yosh avlodni intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakat prezidentining 4375-sonli qarorida takidlanganidek: Bugungi kunda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, yuksak intellektual salohiyatga, zamonaviy fikrlash hamda dunyoqarashga ega, davlat manfaatlari va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyor bo'lgan har tomonlama kamol topgan, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalash borasida zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha mustahkam bilimlarni shakllantirish, bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda².

¹ Xalqaro Incheon deklaratsiyasi 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi. –p.6-7) <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>

² O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.(2020-2024-yillar)

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va metodikasi, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish masalalari bo‘yicha B.S.Abdullayeva, A.A.Abduqodirov, M.X.Allamberganova, M.A.Aripov, U.A.Begimkulov, Sh.B.Bekchonova, G‘.Bozorov, R.X.Djuraev, G.S.Ergasheva, A.E.Ibraymov, T.M.Isakulov, M.X.Lutfullaev, M.E.Mamarajabov A.M.Sattarov, I.X.Soliyev, S.Q.Tursunov, X.R.Tuxtamatov, T.T.Shoyardonov, U.SH.Yuldoshev, F.M.Zakirova, ta’limda mustaqil ishlarni tashkil etish nazariyasi va metodikasi, mustaqil ta’lim turlari va tuzilishlari masalalari bo‘yicha I.A.Abdullayeva, G‘.A.Bozorov, N.A.Muslimov, A.G.Qayumova, A.S.Xoshimova, kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

MDH olimlari tomonidan elektron ta’lim resurslarining imkoniyatlari, zamonaviy elektron ta’lim resurslari hamda ularning afzalliklariga oid masalalar yuzasidan O.D.Avraamova, I.V.Aslanyan, I.Bazileva, M.Y.Buxarkina, A.D.Botvinnikov, N.V.Fedotova, I.I.Litkin, L.A.Minasyan, V.P.Molochkov, Y.E.Nikulin, T.L.Ovsiyannikova, A.Proxorov, A.V.Starshinova, G.Y.Sokolova, E.V.Yakushinalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlar tomonidan elektron ta’lim resurslarini yaratish, elektron ta’lim resurslarini amaliyotga joriy qilish muammolari L.W.Anderson, E.K.Cowen, W.N.Chambers, A.L.James, W.D.Keegan, M.D.Luebke, S.K.Mangal, J.A.Olsson, J.E.Swanke, D.Selman, F.Raymondlar kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va

mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.(2020-2024-yillar)

Tadqiqotning maqsadi "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik lisey o'quvchilarini elektron ta'lim resurslari vositasida mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning elektron didaktik tizimini takomillashtirish;

"Temurbeklar maktabi" o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish modelini ishlab chiqish va o'quvchilarning umumta'lim fanlardan tayyorgarligini faollashtiruvchi interfaol metodlar asosida takomillashtirish;

Elektron ta'lim resurslari vositasida "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi va samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish olingan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Mudofaa vazirligi Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi, Milliy gvardiya Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi, Favqulotda vaziyatlar vazirligi Shaxrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilaridan 295 nafari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarini umumta'lim fanlarini mustaqil o'rganishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qo'yilgan vazifalarni bajarish va qo'yilgan muammolarning yechimini topish uchun pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, modellashtirish, sotsiometrik (test, elektron so'rov, suhbat, bahs-munozara), natijalarni matematik-statistik qayta ishlash va tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Temurbeklar maktabi" o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasining didaktik imkoniyatlari tayanch kompetensiyalarga moslashtirishga qaratilgan interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash faoliyatini ichki, tashqi va protsessual motivatsiyalarni rivojlantirishning prinsiplariga uyg'unlashtirish hamda fanlarni o'qitishning pedagogik mazmunini boyitish asosida aniqlashtirilgan;

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik lisey o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning elektron didaktik tizimi pedagogik

imkoniyatlarga ustuvorlik berish, interaktiv dasturlar, multimedia mahsulotlari, animatsiya, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, mustaqil ish mashg‘ulotlari majmuyi, test tizimlari majmuasi, trenajyorlar, amaliy mashg‘ulotlar majmuasi kabi jarayonlarni intensiv optimallashtirish asosida takomillashtirilgan;

elektron ta‘lim resurslari vositasida “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik lisey o‘quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ijtimoiy ehtiyojning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, elektron ta‘lim resurslarining funksiyalari, tamoyillari, vositalari va darajalariga mazmunli transformatsiyalash hamda o‘quvchilarning umumta‘lim fanlaridan tayyorgarligini faollashtiruvchi interfaol metodlardan ratsional foydalanish asosida takomillashtirilgan;

elektron ta‘lim resurslari vositasida “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik lisey o‘quvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi didaktik materiallardan mustaqil foydalanish, o‘z-o‘zini boshqarish, mustaqil mavzular ustida ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash hamda test tizimlari orqali mavzu o‘rganilganlik darajasini aniqlashga oid mantiqiy-faollashtiruvchi topshiriqlarni kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litsey o‘quvchilarini umumta‘lim fanlarini mustaqil o‘rganishda xizmat qiluvchi elektron ta‘lim resurslari majmuaviy holda foydalanish uchun tizim ko‘rinishiga keltirilgan va amaliyotga joriy etilgan;

“Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litsey uchun elektron ta‘lim resurslarining internet versiyasi yaratilib, Internet tarmog‘iga (www.temurbeklarmv.uz saytiga) joylashtirilgan;

“Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylarida umumta‘lim fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan elektron ta‘lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot muammosining ijobiy yechimini topishda ilg‘or tajribalar, elektron ta‘lim nazariyasi, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda elektron ta‘lim resurslari vositasida mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosi respublika va xorijiy davlatlar tadqiqotchilari tomonidan qo‘llanilgan ilmiy pedagogik yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, pedagogik vazifalar mohiyatiga muvofiq tadqiqot metodlarining tanlangani, tajriba-sinov ishlarining statistik ma‘lumotlarga tayanilgani va matematik statistik jihatdan qayta ishlangani, dissertatsiya mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma‘ruzalari orqali ommalashtirilgani va ma‘qullangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani hamda olingan natijalar davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, tizim va dasturlar asosida “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litselarida umumta‘lim fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan elektron ta‘lim resurslarini joriy etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litselarida ta’lim jarayonini axborotlashtirish, umumta’lim fanlarini o’qitish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy o’quv-metodik ta’minotni yaratish, ilg’or ta’lim texnologiyalarni joriy etish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektron ta’lim resurslari vositasida “Temurbeklar maktabi” o’quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi bo’yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Temurbeklar maktabi” o’quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta’lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasining didaktik imkoniyatlari tayanch kompetensiyalarga moslashtirishga qaratilgan interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash faoliyatini ichki, tashqi va protsessual motivatsiyalarni rivojlantirishning prinsiplariga uyg’unlashtirish hamda fanlarni o’qitishning pedagogik mazmunini boyitish asosida aniqlashtirishga oid takliflar “Oliy ta’lim muassasalari uchun matematika va uni o’qitish metodikasidan 3D tizimli interaktiv axborot ta’lim resurslarini yaratish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7559/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada o’quvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish imkoni yaratilgan.

“Temurbeklar maktabi” harbiy akademik lisey o’quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning elektron didaktik tizimi pedagogik imkoniyatlarga ustuvorlik berish, interaktiv dasturlar, multimedia mahsulotlari, animatsiya, darsliklar, o’quv qo’llanmalar, mustaqil ish mashg’ulotlari majmuyi, test tizimlari majmuasi, trenajyorlar, amaliy mashg’ulotlar majmuasi kabi jarayonlarni intensiv optimallashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Oliy ta’lim muassasalari uchun matematika va uni o’qitish metodikasidan 3D tizimli interaktiv axborot ta’lim resurslarini yaratish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7559/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada akademik lisey o’quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning elektron didaktik tizimini takomillashtirishga sharoit yaratilgan.

elektron ta’lim resurslari vositasida “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik lisey o’quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ijtimoiy ehtiyojning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, elektron ta’lim resurslarining funksiyalari, tamoyillari, vositalari va darajalariga mazmunli transformatsiyalash hamda o’quvchilarning umumta’lim fanlaridan tayyorgarligini faollashtiruvchi interfaol metodlardan ratsionall foydalanish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Oliy ta’lim muassasalari uchun matematika va uni o’qitish metodikasidan 3D tizimli interaktiv axborot ta’lim resurslarini yaratish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7559/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada o’quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta’lim resurslari vositasida rivojlantirish modeli mazmuni boyitilgan.

elektron ta'lim resurslari vositasida "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik lisey o'quvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi didaktik materiallardan mustaqil foydalanish, o'z-o'zini boshqarish, mustaqil mavzular ustida ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash hamda test tizimlari orqali mavzu o'rganilganlik darajasini aniqlashga oid mantiqiy-faollashtiruvchi topshiriqlarni kiritish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Oliy ta'lim muassasalari uchun matematika va uni o'qitish metodikasidan 3D tizimli interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7559/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada o'quvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini rivojlantirishga sharoit yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 3 ta respublika konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 3 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnalda maqolalar nashr etilgan. Shuningdek, konferensiyalarda 4 ta, shundan 1 ta xalqaro va 3 ta respublika konferensiyasida tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **““Temurbeklar maktabi”o'quvchilarinning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarinning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, Kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, konseptual asoslari, Elektron ta'lim resurslari "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarinning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish haqida so'z borgan.

Ilm fan jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari davomida yetkazib berish biroz mushkul. Shu sababli mustaqil ta'lim turi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarni darsdan tashqari vaqtda o'z ustida ishlashga va darslarni mustaqil o'zlashtirishga undaydi, ularda

interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishdek muhim, ayni damda murakkab masala yo'q. Zamonaviy ta'lim standartlariga o'tish bugungi kun ta'limi oldiga o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish bilan bog'liq muammolarni yechish masalasini qo'yadi. Natijada, o'quvchilarning interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlarini tashkil etish ta'lim jarayonining asosiy shakliga aylanib, mazkur masalada jiddiy yondashuvlarni taqozo etadi. V.V.Kraevskiyning tadqiqotlariga ko'ra, mustaqil ish o'quvchilarning bilish qobiliyatini rivojlantirishga, yangi materialni o'zlashtirish tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'rganish va tahlillar natijasida "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasining didaktik imkoniyatlari tayanch kompetensiyalarga moslashtirishga qaratilgan interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash faoliyatini ichki, tashqi va protsessual motivatsiyalarni rivojlantirishning prinsiplariga uyg'unlashtirish hamda fanlarni o'qitishning pedagogik mazmunini takomillashtirish yuzasidan kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi:

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylarida mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati quyidagicha tasniflandi.

davlat ta'lim standarti va o'quv fan dasturidagi maqsadlar bilan cheklangan bo'lib, o'quvchining bilim va ko'nikma, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlashga qo'yilgan kompetensiya darajasi va ularning xatti-harakatini hisobga olgan holdagi mustaqil ish mavzulari tashkil etilmagan.

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylarida o'quv rejalari va fan dasturlari o'quv mazmuniga muvofiq mustaqil ishlash uchun belgilab berilgan mavzularning o'qitilishi zamon talablari asosida takomillashtirilmagan;

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarini mustaqil ishlashlarini tashkil qilishda interfaollik, refleksivlik, hamda zamonaviy texnologiyalar jalb qilinmagan;

dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirishda elektron ta'lim resursining didaktik imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmagan va shu orqali ularning mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan;

Mazkur dissertatsiyada kompetensiyaviy yondashuv doirasiga kiradigan va u bilan o'zaro aloqador bo'lgan tushunchalarni izohlashga harakat qilindi. Ular: kompetensiya, tayanch kompetensiya, kompetentlilik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik kabilar. Shu bilan bir qatorda tadqiqot davomida kompetentlilik va tayyorlik, kompetensiya hamda bilim, ko'nikma, malakalarning har biri ustida fikr yuritishga harakat qilindi.

A.B.Xutorskoyning fikriga ko'ra, kompetentlilik shaxsning sifati hisoblanadi. U insonning muayyan kompetensiyani egallashini taqozo etadi. Shu tariqa, kompetensiya bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, faoliyat usullari majmui bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'quvchilarni elektron ta'lim resurslari orqali mustaqil ishlashlarini rivojlantirish, interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, o'quvchilarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, respublikada elektron ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.Sh.Begimqulov, S.S.G'ulomov, F.M.Zakirova, Q.T.Olimov, S.Q.Tursunov, A.G'.Hayitov elektron axborot-ta'lim resurslarini ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari bo'yicha M.E.Mamarajabov, U.Y.Yuldashev va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shuningdek, ta'lim tizimida axborot-ta'lim muhitini tashkil etish o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtirish, interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash va mustaqil ishlashni takomillashtirish, bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligi oshishini, o'quvchilarning bilish faoliyatlari intensivlashuvi, fanlararo aloqadorlikning chuqurlashuvi kuzatilishi haqida fikr yuritgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy muammolar va vazifalarni hal etishning dolzarbligi dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi, hamda dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirish natijasida elektron ta'lim resurslari yordamida "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarini mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining didaktik imkoniyatlari tayanch kompetensiyalarga moslashtirishga qaratilgan interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash faoliyatini ichki, tashqi va protsessual motivatsiyalarni rivojlantirishning prinsiplariga uyg'unlashtirish hamda fanlarni o'qitishning pedagogik mazmunini boyitish zarurati mavjud ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi.

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslari roliga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylarida ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasining didaktik imkoniyatlari tayanch kompetensiyalarga moslashtirishga qaratilgan interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash uchun zarur kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish maqsadini ko'zda tutadi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqot ishida "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarini elektron ta'lim resurslarining elektron didaktik tizimidan oqilona foydalanish, didaktik ma'lumotlarni interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash faoliyati davomida foydalanishni rivojlantirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijasida "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarining elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasining didaktik imkoniyatlari tayanch kompetensiyalarga moslashtirishga qaratilgan interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Temurbeklar maktabi“ harbiy akademik litsey o‘quvchilarini mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish natijasida o‘quvchilarda olgan bilimlarni kundalik faoliyatda qo‘llash, ta‘lim olish davomida zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish;

Jadal taraqqiy etayotgan jamiyatga muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, tanqidiy hamda interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlay oladigan barkamol shaxsni shakllantirish;

O‘qituvchining yo‘naltiruvchilik faoliyati asosida dars jarayonining o‘zida o‘quvchilarning fan mavzulari ustida interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litsey o‘quvchilarini mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarni o‘z ustida ishlash, interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ta‘lim olish, doimiy izlanish, elektron ta‘lim resurslaridan foydalanib, mustaqil rivojlanish uchun keng shart-sharoitlar yaratib berish, hamda elektron didaktik tizim imkoniyatlariga ustuvorlik berish, tayanch kompetensiyalarga moslashtirishga qaratilgan interfaollik, refleksivlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ishlash faoliyatini ichki, tashqi va protsessual motivatsiyalarni rivojlantirishning prinsiplariga uyg‘unlashtirish hamda fanlarni o‘qitishning pedagogik mazmunini boyitish maqsadga muvofiq degan hulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning **““Temurbeklar maktabi” o‘quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta‘lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi o‘quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda elektron ta‘lim resurslarini yaratish va foydalanish, o‘quvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyasini elektron ta‘lim resurslari vositasida rivojlantirish modeli, hamda elektron ta‘lim resurslari vositasida o‘quvchilarni mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi haqida so‘z boradi.


M.E.Mamarajabov fikricha elektron ta‘lim resurslarining asosiy vazifasi o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muloqotni ta‘minlashdan iborat. O‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi doimiy muloqotsiz tashkil qilingan o‘quv jarayoni ko‘zlangan samarani bermaydi. Ta‘lim tizimining kunduzgi shaklida o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muloqot bir vaqt, bir joyda o‘quv auditoriyasida amalga oshiriladi. Masofali o‘qitishda esa bu jarayon telekommunikatsion vositalar interaktiv dasturlar, multimedia mahsulotlari, animatsiya, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, mustaqil ish mashg‘ulotlari majmuyi, test tizimlari majmuasi, trenajyorlar, amaliy mashg‘ulotlar majmuasi asosida kompyuterning tarmoq texnologiyalari orqali amalga oshiriladi

Elektron ta‘lim resurslari vositasida ta‘lim tizimni tashkil qilish natijasida o‘quv jarayonining yangi o‘ziga xos imkoniyatlari paydo bo‘ladi, uning takomillashishi va rivojlanishi o‘quvchilarni o‘quv jarayonida faol ishtirok etishni yanada kengaytiradi. Elektron ta‘lim resurslari vositasida mustaqil ishlash jarayonini tashkil qilishda elektron darsliklar va virtual stendlarning yaratilishiga alohida e‘tibor berish kerak. Veb texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta‘lim resurslari va unda

joylashgan elektron yoki multimediali elektron darsliklar asosida o'quv jarayonini tashkil qilish, an'anaviy o'qitishga nisbatan o'zining afzallik jihatlarini ko'rsatadi.

Dasturiy texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta'lim resursi quyidagicha ishga tushiriladi: Internet tarmog'iga ulangan ixtiyoriy kompyuter yoki smartfondan brauzer dasturi (Internet Explorer, Opera yoki boshqa dasturlar) ishga tushiriladi, adreslar qatoriga <http://www.temurbeklarmv.uz> ko'rinishdagi buyruq beriladi va ekranda elektron resurs bosh sahifasi paydo bo'ladi.

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantiruvchi elektron platforma matematika fani misolida yaratilgan. "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarini elektron ta'lim resursidagi harakat sxemasi. (1-rasm)



1-rasm .O'quvchilarining elektron ta'lim resursidagi harakat sxemasi

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yaratilgan elektron resursning afzalliklari quyidagilardir

Elektron resursda mavjud fan mavzulari va topshiriqlari "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyining namunaviy fan dasturi asosida joylashtirilganligi;

Elektron resursning elektron didaktik tizimi pedagogik imkoniyatlarga ustuvorlik berish, interaktiv dasturlar, multimedia mahsulotlari, animatsiya, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, mustaqil ish mashg'ulotlari majmuyi, test tizimlari majmuasi, trenajyorlar, amaliy mashg'ulotlar majmuasi kabi jarayonlarni intensiv optimallashtirish asosida respublikada mavjud barcha "Temurbeklar maktabi" o'qituvchilari tomonidan doimiy boyitib borilishi;

Fanlar bo'yicha mavjud interaktiv dasturlar, multimedia mahsulotlari, animatsiya, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, mustaqil ish mashg'ulotlari majmuyi, test

tizimlari majmuasi, trenajyorlar, amaliy mashg'ulotlar majmuasi ko'rinishining xilma-xilligi, ko'rgazmaliligi va doimiy ravishda o'zgarib turishi;

Respublikadagi "Temurbeklar maktabi" ma'muriyatlari tomonidan maktab o'quvchilarining fanlardan o'z-o'zini boshqarish, mustaqil mavzular ustida ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash hamda test tizimlari orqali mavzu o'rganilganlik darajasini aniqlashga oid mantiqiy-faollashtiruvchi topshiriqlarni kiritish va boshqa maktab o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan qiyosiy taxlil qila olish imkoniyatining mavjudligi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim tizimiga elektron ta'lim resurslarini joriy qilish orqali o'quv jarayonini tashkil qilish an'anaviy o'qitish uslubiga qaraganda samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Elektron ta'lim resurslari yordamida o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning elektron didaktik tizimi imkoniyatlarga ustuvorlik berish, interaktiv dasturlar, multimedia mahsulotlari, animatsiya, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, mustaqil ish mashg'ulotlari majmuyi, test tizimlari majmuasi, trenajyorlar, amaliy mashg'ulotlar majmuasi kabi jarayonlarni intensiv optimallashtirish o'quvchilarga bilim berish jarayonida o'quv materiallarni ko'rgazmali ko'rinishda yetkazib berish imkoniyati mavjudligini alohida e'tirof etish mumkin.


Tadqiqot natijasida elektron ta'lim resurslari vositasida "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik lisey o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ijtimoiy ehtiyojning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, elektron ta'lim resurslarining funksiyalari, tamoyillari, vositalari va darajalariga mazmunli transformatsiyalash hamda o'quvchilarning umumta'lim fanlaridan tayyorgarligini faollashtiruvchi interfaol metodlardan ratsional foydalanish asosida takomillashtirilgan modeli jarayonining barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi.(2-rasm)

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ishlashga tayyorgarlik jarayoniga nisbatan tizimlilik, bir tomondan, maktabning asosiy tayyorgarlik shakllari sifatida aloqasini talab qiladi, ikkinchi tomondan, bu bosqichlarning har birida o'quvchini o'qitish va tarbiyalashning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining o'zaro bog'liqligini talab qiladi.

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarini mustaqil ishlash kompetensiyasini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish modelida ishlash jarayonidagi dasturiy vositalar, texnik vositalar, metodik vositalar elektron resurslari komponentlari aks ettirilgan.

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarini mustaqil ishlash kompetensiyasini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish modelida o'quvchilarni baholash mezonlari ishlab chiqildi va shu me'zonlar asosida o'quvchilarni sifat samaradorligi darajasi aniqlashtirildi.

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarini mustaqil ishlash kompetensiyasini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish modelida ishlash jarayonida brauzerlar, internet provayderlar, elektron resurslar va boshqa elektron ta'lim resurslarining imkoniyatlari tadqiqot ishi davomida ko'rib chiqilib, o'quvchilarga ularning imkoniyatlari tanishtirildi hamda ular asosida taqdim qilingan resursda ishlash jarayoni tushuntirildi.



2-rasm "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish modeli.

Elektron ta'lim resurslari vositasida "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilarini mustaqil ta'limni joriy qilishda bir qator metodikalar va yondashuvlar mavjud. Biz tadqiqot davomida taqdim qilgan elektron ta'lim resursida mustaqil ishlashni tashkil qilishda quyidagi metodikalardan foydalanildi va bu metodlar amaliyotga joriy qilindi.

Flipped Classroom (Teskari sinf) modeli

Tavsifi: Darsdan oldin o'quvchilar mustaqil ravishda elektron ta'lim resurslari orqali materiallarni o'rganadilar. Sinfda esa amaliy muhokamalar, savol-javoblar va mashqlar bajariladi.

Qo'llash: Video-lektsiyalar va interaktiv darslarni oldindan tayyorlash va mavzu bo'yicha masalalar va muammolarni sinfda birgalikda yechish.

Self-paced Learning (O'z tezligida ta'lim)

Tavsifi: O'quvchilarr o'zlarining qobiliyatlari va qulay vaqtlariga qarab, o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'zlashtiradilar.

Qo'llash: Elektron platformalarda kurslarni modullar va bosqichlarga bo'lish, har bir modul yakunida test va masalalar orqali bilimlarni tekshirish, progressni kuzatish uchun tahliliy vositalarni joriy qilish (masalan, Learning Analytics).

Microlearning (Kichik o'quv bo'limlari)

Tavsifi: Ta'lim materiallarini kichik, tushunarli qismlarga bo'lish orqali mustaqil o'qish jarayonini yengillashtirish.

Qo'llash: Har bir mavzu uchun qisqa video, infografika, yoki test shaklida resurslarni yaratish, mavzularni mustahkamlash uchun kichik mashqlar va tezkor qayta aloqa mexanizmlarini joriy qilish.

Adaptive Learning (Moslashtirilgan ta'lim)

Tavsifi: Elektron resurslar yordamida har bir o'quvchiga moslashtirilgan o'quv rejasi taklif qilinadi.

Qo'llash: Sun'iy intellekt asosida o'quvchining bilim darajasini tahlil qilib, shunga mos ravishda kontentni taqdim etish, platformalardagi avtomatik diagnostika tizimlari yordamida o'quvchilarni yo'naltirish.

